



## TARIX FANIDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH TAMOYILLARI VA VAZIFALARI

*Ilmiy rahbar*

**Muxammadiyev Raxmon Rashidovich**

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Tarix kafedrası dotsenti,*

Orcid id: 0009-0004-4935-1968, Tel.: +99897 775-35-86,

*e-mail: r.muxammadiyev@kiut.uz*

**Safaraliyev Abbasxon Asqarali o'g'li**

*INTERNATIONAL PUBLICATION CENTER*

*Ilm-Fan va Ma'naviyat ilmiy tadqiqot kengashi*

*Ma'naviy ishlar bo'limi boshlig'i,*

*Perfect University Tarix yo'nalishi*

Orcid id: 0009-0007-6007-6524, Tel.: +99891 001-99-77,

*e-mail: [abbosxonsafarov@gmail.com](mailto:abbosxonsafarov@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix fani doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari tahlil qilinadi. Tarixiy tadqiqotning ilmiyligi tarixiylik, xolislik, dalillarga tayanish, manbalarni tanqidiy o'rganish, mantiqiy izchillik va tizimli yondashuv bilan belgilanadi. Maqolada tarixiy tadqiqot jarayonida mavzu tanlash, muammoni belgilash, manbalarni aniqlash, tadqiqot metodlarini tanlash, dalillarni tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish va natijalarni rasmiylashtirish kabi



bosqichlar yoritiladi. Tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv, manbashunoslik madaniyati va metodologik tayyorgarlik muhim o'rin tutishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarix fani, ilmiy tadqiqot, metodologiya, tarixiylik, xolislik, manba, dalil, tadqiqot tamoyillari, fanlararo yondashuv.

## PRINCIPLES AND TASKS OF ORGANIZING SCIENTIFIC RESEARCH IN HISTORICAL SCIENCE

**Abstract.** This article analyzes the main principles and tasks of organizing scientific research in historical science. The scientific nature of historical research is determined by historicity, objectivity, reliance on evidence, critical study of sources, logical consistency, and a systematic approach. The article examines such stages of historical research as choosing a topic, defining a research problem, identifying sources, selecting research methods, analyzing evidence, drawing scientific conclusions, and presenting results. It is argued that interdisciplinary approach, source-study culture, and methodological training play an important role in historical research.

**Keywords:** historical science, scientific research, methodology, historicity, objectivity, source, evidence, research principles, interdisciplinary approach.

## ПРИНЦИПЫ И ЗАДАЧИ ОРГАНИЗАЦИИ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ В ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКЕ

**Аннотация.** В статье анализируются основные принципы и задачи организации научно-исследовательских работ в исторической науке. Научность исторического исследования определяется историзмом, объективностью, опорой на факты, критическим изучением источников, логической последовательностью и



системным подходом. В статье рассматриваются такие этапы исторического исследования, как выбор темы, постановка научной проблемы, выявление источников, выбор методов исследования, анализ фактов, формирование научных выводов и оформление результатов. Обосновывается важное значение междисциплинарного подхода, источниковедческой культуры и методологической подготовки в исторических исследованиях.

**Ключевые слова:** историческая наука, научное исследование, методология, историзм, объективность, источник, факт, принципы исследования, междисциплинарный подход.

**Kirish.** Tarix fani jamiyatning o'tmishini o'rganish, tarixiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini aniqlash, insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini ilmiy asosda yoritish bilan shug'ullanadi. Tarixiy tadqiqotning qiymati faqat voqealarni bayon qilish bilan emas, balki ularni ilmiy mezonlar asosida tahlil qilish, manbalarni tanqidiy o'rganish va asosli xulosalar chiqarish bilan belgilanadi. Tarix fani doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini to'g'ri tashkil etish tarixchidan metodologik tayyorgarlik, manbashunoslik madaniyati, mantiqiy fikrlash, tarixiy dalilga ehtiyotkorlik bilan yondashish va ilmiy xolislikni talab qiladi. Tadqiqotchi tanlagan mavzuning dolzarbligini asoslay olishi, ilmiy muammoni aniq belgilashi, mavjud adabiyotlar va manbalarni tanqidiy ko'rib chiqishi, tadqiqot usullarini to'g'ri tanlashi lozim.

Bugungi tarix fani uchun tadqiqot ishlarini tashkil etishda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, tizimlilik, manbalarga tayanish va fanlararo yondashuv kabi tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillar tarixiy jarayonlarni biryoqlama talqin qilishdan



saqlaydi, tadqiqotchiga voqealarni o'z davri, sharoiti va ichki qonuniyatlari asosida baholash imkonini beradi.

**Asosiy qism.** Tarix fani ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish, avvalo, metodologik asoslarni to'g'ri anglashdan boshlanadi. Metodologiya tarixiy tadqiqotning umumiy yo'nalishini belgilaydi, ilmiy muammoni qo'yish, uni hal etish yo'llarini aniqlash, tadqiqot usullarini tanlash va olingan natijalarni baholashda asosiy nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Tarix fani metodologiyasida tarixiy manba, tarixiy dalil, tarixiy jarayon, davr, sababiyat, uzviylik va izchillik kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi [1].

Tarixiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning birinchi tamoyili tarixiylik tamoyilidir. Bu tamoyil har bir voqea, hodisa yoki jarayonni o'z davri sharoitida, mavjud siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Tarixiylik tamoyiliga amal qilinmasa, o'tmish voqealari hozirgi davr mezonlari bilan baholanib, ilmiy xulosalarda biryoqlamalik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli har bir tarixiy masala o'z davrining ichki shart-sharoitlari, mavjud manbalari va o'sha davrdagi ijtimoiy tafakkur bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [1; 2].

Ilmiy tadqiqotning ikkinchi muhim tamoyili xolislikdir. Xolislik tarixiy jarayonlarga oldindan belgilangan siyosiy, mafkuraviy yoki shaxsiy qarashlar asosida emas, balki manbalar va dalillar asosida yondashishni bildiradi. Tarixchi o'z tadqiqotida voqealarning faqat bir tomonini emas, balki turli manbalarda aks etgan ma'lumotlarni qiyosiy o'rganishi lozim. Bitta manbaga tayanib qat'iy xulosa chiqarish tarixiy haqiqatni to'liq ochib bera olmaydi. Shuning uchun tarixiy tadqiqotda rasmiy hujjatlar, solnomalar,



arxiv materiallari, xotiralar, statistik ma'lumotlar, matbuot materiallari va boshqa dalillar birgalikda o'rganiladi [3; 4].

Dalillarga tayanish tarix fani tadqiqotlarining asosiy shartlaridan biridir. Tarixiy dalil tadqiqotchi tomonidan oddiy ma'lumot sifatida emas, balki tekshirilgan, qiyoslangan va ilmiy izohlangan fakt sifatida qo'llanadi. Manbada uchragan har qanday ma'lumot tarixiy dalil darajasiga ko'tarilishi uchun uning kelib chiqishi, muallifi, yozilgan vaqti, maqsadi, ishonchlilik darajasi va boshqa manbalar bilan mosligi aniqlanishi kerak. Tarixiy tadqiqotda dalil va talqin o'rtasidagi nisbatni to'g'ri saqlash muhimdir [5; 6].

Tarix fani ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda manbashunoslik yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Har bir tadqiqot mavzusi bo'yicha avvalo mavjud manbalar aniqlanadi, ular turlari bo'yicha guruhlanadi, ilmiy qiymati baholanadi va tanqidiy tahlil qilinadi. Manba tashqi va ichki tahlildan o'tkaziladi. Tashqi tahlilda manbaning yozilgan vaqti, joyi, muallifi, saqlanish holati, nusxalari va shakli o'rganiladi. Ichki tahlilda esa matn mazmuni, voqealar bayoni, muallif munosabati, dalillarning aniqligi va boshqa manbalar bilan aloqasi tekshiriladi [3; 4].

Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning navbatdagi bosqichi mavzuni to'g'ri tanlashdir. Mavzu dolzarb, ilmiy jihatdan asoslangan, manbalar bilan ta'minlangan va tadqiqot doirasi aniq bo'lishi kerak. Juda keng mavzu tadqiqotchiga masalani chuqur o'rganish imkonini bermaydi. Juda tor mavzu esa umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini cheklashi mumkin. Shu sababli tarixiy tadqiqot mavzusi davr, hudud, muammo va manbalar doirasi bo'yicha aniq chegaralanadi.



Mavzu tanlangandan keyin ilmiy muammo belgilanadi. Ilmiy muammo tadqiqotning markaziy savolini tashkil qiladi. Tarixiy tadqiqotda muammo voqea yoki hodisani shunchaki tasvirlashdan iborat bo'lmashligi kerak. U sabab, oqibat, o'zgarish, uzviylik, qarama-qarshilik, tarixiy ahamiyat yoki manbalar talqinidagi tafovutlarni aniqlashga qaratilishi lozim. To'g'ri qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqotning yo'nalishini belgilaydi va keraksiz bayonchilikdan saqlaydi [7].

Tarixiy tadqiqotda maqsad va vazifalarni belgilash ham muhim bosqich hisoblanadi. Maqsad tadqiqot orqali erishilishi lozim bo'lgan umumiy ilmiy natijani anglatadi. Vazifalar esa ushbu maqsadga olib boruvchi aniq ilmiy bosqichlardir. Masalan, manbalarni aniqlash, tarixshunoslikni o'rganish, asosiy tushunchalarni izohlash, davr xususiyatlarini ko'rsatish, voqealar rivojini tahlil qilish, qiyosiy baholash va ilmiy xulosa chiqarish tadqiqot vazifalari sifatida belgilanadi.

Tadqiqot metodlarini tanlash tarix fani ilmiy ishlarini tashkil etishda alohida o'rin tutadi. Tarixiy tadqiqotlarda falsafiy, umumilmiy, maxsus-tarixiy va aniq-muammoviy usullar qo'llanadi. Falsafiy yondashuv tarixiy jarayonlarning umumiy mohiyatini tushunishga yordam beradi. Umumilmiy usullar tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish kabi amallarni o'z ichiga oladi. Maxsus-tarixiy usullar tarixiy-genetik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, davrlashtirish, retrospektiv va muammoviy-xronologik tahlil kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi [1; 8].

Tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Ijtimoiy tarix, iqtisodiy tarix, madaniyat tarixi, shaharlar tarixi, harbiy tarix, tarixiy demografiya va boshqa yo'nalishlarda sotsiologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik,



geografiya, arxeologiya, antropologiya, filologiya va statistika usullaridan foydalanish ilmiy natijalarni boyitadi. Fanlararo yondashuv tarixiy voqelikni birgina siyosiy bayon doirasida emas, balki keng ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayon sifatida ko'rishga yordam beradi [1; 9].

Tarixiy tadqiqot ishlarini tashkil etishda izchillik va mantiqiylik tamoyili ham muhimdir. Tadqiqotchi mavzudan chetga chiqmasligi, dalillarni tartibli joylashtirishi, har bir bob yoki bo'limda oldinga surilgan fikrni manbalar bilan asoslay olishi kerak. Voqealar ketma-ketligini saqlash, sabab va oqibatni ajratish, xulosalarni dalillardan kelib chiqib shakllantirish ilmiy ishning sifatini belgilaydi. Mantiqiy izchillik bo'lmagan tadqiqotda manbalar ko'p bo'lsa ham, ilmiy natija yetarli darajada asoslanmaydi.

Tarixiy tadqiqotda tanqidiy yondashuv alohida vazifa bajaradi. Har bir manba muayyan davr, muhit, manfaat va muallif qarashi ta'sirida yaratiladi. Shuning uchun tarixchi manbani so'zsiz qabul qilmaydi, balki uni tekshiradi, qiyoslaydi va izohlaydi. Ayniqsa, siyosiy voqealar, sulolalar tarixi, urushlar, ijtimoiy harakatlar, mafkuraviy jarayonlar va shaxslar faoliyatini o'rganishda manbalardagi subyektivlik darajasini aniqlash zarur. Tanqidiy yondashuv tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatish xavfini kamaytiradi [3; 6].

Ilmiy tadqiqotning yana bir vazifasi mavjud tarixshunoslikni o'rganishdir. Tadqiqotchi tanlagan mavzu bo'yicha ilgari qanday ishlar qilinganini, qaysi masalalar yoritilganini, qaysi jihatlar kam o'rganilganini aniqlashi kerak. Tarixshunoslik tahlili mavzuning ilmiy yangiligini belgilashga yordam beradi. Ilmiy yangilik avvalgi tadqiqotlarni inkor qilish bilan emas, balki ularni tanqidiy o'rganish va mavjud bilimni



yangi manba, yangi yondashuv yoki yangi xulosa bilan boyitish orqali yuzaga keladi [2; 7].

Tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish ham ilmiy ishni tashkil etishning muhim qismidir. Tarixiy tadqiqot kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va zarur hollarda ilovalardan iborat bo'ladi. Kirishda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalar, obyekt va predmet, metodologik asoslar, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat ko'rsatiladi. Asosiy qismda dalillar tahlil qilinadi. Xulosada esa tadqiqot davomida erishilgan ilmiy natijalar umumlashtiriladi.

Tarix fani ilmiy tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biri tarixiy jarayonlarni xolis va ilmiy asosda yoritishdir. Bu vazifa tadqiqotchidan manbalar bilan ishlash madaniyatini, metodlarni to'g'ri tanlashni, dalil va talqinni farqlashni, ilmiy bahsga tayyor bo'lishni talab qiladi. Tarixiy tadqiqot natijasi faqat ilmiy jamoatchilik uchun emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy tarbiyasi va milliy o'zlikni anglash jarayoni uchun ham muhimdir.

Tarix fani tadqiqotlarida nazariy bilim va amaliy izlanish bir-birini to'ldiradi. Nazariy tayyorgarlik tadqiqotchiga ilmiy masalani to'g'ri qo'yish imkonini beradi. Amaliy izlanish esa manbalar, dalillar va tarixiy materiallar orqali nazariy qarashlarni tekshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tarixiy tadqiqot faqat matn yozish jarayoni emas, balki manba, metod, tahlil, talqin va xulosa o'rtasidagi murakkab ilmiy faoliyatdir.

**Xulosa.** Tarix fani ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish aniq metodologik asos, puxta reja, ishonchli manbalar, tanqidiy tahlil va ilmiy xulosalarga tayanadi. Tadqiqotning muvaffaqiyati mavzuni to'g'ri tanlash, ilmiy muammoni aniq belgilash,



maqsad va vazifalarni izchil qo'yish, manbalar bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash va mos tadqiqot metodlarini qo'llashga bog'liq.

Tarixiylik, xolislik, ilmiylik, dalillarga tayanish, mantiqiy izchillik va tizimli yondashuv tarixiy tadqiqotning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Bu tamoyillar tarixiy voqealarni biryoqlama talqin qilishdan saqlaydi va tadqiqotchiga o'tmish jarayonlarini o'z davri sharoiti bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi.

Tarix fani tadqiqotlarining vazifasi faqat voqealarni qayd etish emas. U tarixiy jarayonlarning sabablarini ochish, manbalarni tanqidiy o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni baholash, yangi dalillarni ilmiy muomalaga kiritish va asosli xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Bunday yondashuv tarix fanining nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuv, raqamli manbalar, arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar, matnshunoslik va manbashunoslik usullaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Tarixchi metodologik jihatdan tayyor, manbaga tanqidiy yondasha oladigan, dalillarni mantiqiy tahlil qiladigan va xulosalarni ilmiy asoslaydigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shu asosda tashkil etilgan ilmiy tadqiqot tarixiy haqiqatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Илҳомов З.А. Тарих фани методологияси: тарих факультети талабалари учун услубий қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012.

2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 32 б.



3. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
4. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик: бакалаврият таълим йўналиши талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008.
5. Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. – Москва: Наука, 1987. – 440 с.
6. Блок М. Апология истории, или Ремесло историка / пер. с фр. – 2-е изд., доп. – Москва: Наука, 1986. – 254 с.
7. Карр Э.Х. Что такое история? / пер. с англ. – Москва: Прогресс, 1990. – 199 с.
8. Ланглуа Ш.В., Сеньобос Ш. Введение в изучение истории / пер. с фр. А. Серебряковой. – Санкт-Петербург: О.Н. Попова, 1899. – 276 с.
9. Данилевский И.Н., Кабанов В.В., Медушевская О.М., Румянцева М.Ф. Источниковедение: Теория. История. Метод. Источники российской истории: учебное пособие. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 1998. – 701 с.
10. Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008.